Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiq... DOI: 10.5281/zenodo.24317146

мустаснодир. Аёлларнинг улар учун мумкин бўлган нормадан ортиқ юкни кўтаришлари ва ташишлари ман этилади.

Аёллар меҳнатини қўлланиш тақиқланадиган меҳнат шароити ноқулай ишларнинг рўйхати ҳамда улар кўтаришлари ва ташишлари мумкин бўлган юк нормаларининг чегарасини Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ва Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерацияси Кенгаши ва иш берувчиларнинг вакиллари маслаҳатини олган ҳолда тасдиқлайди.

Меҳнат қонунчилигига мувофиқ, аёлларни ишга қабул қилиш умумий асосларда меҳнат шартномаси тузиш орқали амалга оширилади. Аммо уларнинг айрим тоифасига қўшимча кафолатлар белгиланиши мумкин. Аёлларни ҳомиладорлиги ёки боласи борлиги сабабли ишга қабул қилишни рад этиш ва уларнинг иш ҳақини камайтириш тақиқланади. Ҳомиладор ёки уч ёшга тўлмаган боласи бор аёлни ишга қабул қилиш рад этилган тақдирда, иш берувчи бунинг сабабларини уларга ёзма равишда маълум қилиши шарт. Бу тоифа аёлларни ишга қабул қилишни ғайриқонуний равишда рад этишга мутлақо йўл қўйилмайди. Ишга қабул қилишни рад этганлик устидан судга шикоят қилиниши мумкин. Бундай ҳолларда уларнинг поймол этилган ҳуқуқлари суд томонидан дарҳол тикланади.

Меҳнат қонунчилигида аёллар меҳнати учун турли имтиёз ва кафолатлар белгиланган. Бу имтиёз ва кафолатларнинг барчаси халқаро ҳуқуқий норма, қоидаларга асосланади. Хусусан, “Аёлларни камситишнинг барча шаклларига барҳам бериш тўғрисида”ги Конвенцияда аёлларнинг ижтимоий-иқтисодий фаолият соҳасида эркаклар билан тенг ҳуқуқларга эга бўлиши учун барча зарур чора-тадбирлар амалга оширилиши лозимлиги таъкидланган. Ушбу Конвенция ва бошқа халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда баён этилган аёлларнинг ҳуқуқларига оид қоидалар Конституциямизда ва Меҳнат кодекси ҳамда бошқа қонунчиликларда тўлиқ ўз аксини топган.

*Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent M.Axunov*

Фойдаланилган адабиётлар

1.Конституция Республики Узбекистан // URL: http://www. lex.uz
2. Закон «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» // URL: https://lex.uz/docs/4494849
3. Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» // URL: https://www.lex.uz/docs/4494709

## AMIR TEMUR IQTISODIY SIYOSATINING AYRIM MASALALARI



Published: 28.03.2024
**Cite this article:** Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich (2024). Amir Temur iqtisodiy siyosatining ayrim masalalari. Emro Science and Education, 1(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317146
*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

**Ataxanov Rafikjon Sotvoldievich**
TDIU Andijon fakulteti
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasi dotsenti
ataxanov1966@gmail.com

**Mavzuning dolzarbligi:** Tarix fanida davlatning kelib chiqishi va mavjudligi to‘g‘risida alohida nazariyalar ishlab chiqilgan. Ana shunday nazariyalardan biri davlatni mavjudligini saqlab qolmoq uchun soliq, moliya va bank kabi iqtisodiy omillardir. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan bir qator tadqiqotchilar insonning tiriklik manbai iqtisod ekanligini ta'kidlab, “odamlar o‘ylamoqlari uchun emoqlari kerak” degan xalqona fikrni ilgari surishgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka qadam qo‘yishi bilan “O‘zbek modeli” nomi bilan olib borilgan islohotlarning asosiy bo‘g‘ini ham iqtisodiy masalani tashkil qilgan bo‘lib, xususan, iqtisodning siyosatdan ustuvorligi tamoyili O‘zbekistonni rivojlantirishning besh tamoyilining dastlabki ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olingan edi. Xullas, iqtisodiy masala har bir davrda, har qanday jamiyatning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan.

Biz quyida fikr yuritib mushohada qilmoqchi bo‘lgan mavzu ham iqtisodiy masalalarga bog‘liq bo‘lib, uning asosiy mazmunini o‘rta asr Temur davlati va Temuriylar davlatchiligidagi mulk, soliq, xazina, g‘azna kabi tushunchalar bilan bog‘liq.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur davlatni boshqarishga iqtisodièt harakatlanishi va rivojlanish nuqtai nazaridan yondashish haqida o‘ylar ekan, ularning har biri yiliga qancha yalpi daromad olib kelishi, u qanday usullar bilan taqsimlanishi, davlat ixtièriga o‘tkaziladigan to‘lovlar va boshqa masalalarni aniq belgilab olgan. Amir Temur buyuk strateg, mohir siyosatchi, ijtimoiy munosabatlarning qat'iy islohotchisi, savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning homiysi sifatida, qonunlar va urf-odatlarga asoslangan davlatni barpo etdi. Shu bois Amir Temurning yagona saltanatni mustahkamlash strategiyasida, ayniqsa, moliyaviy masalalar muhim o‘rin tutadi. Xazina, ya'ni davlat pul resurslarining markazlashtirilgan jamg‘armalarini vujudga keltirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Amir Temur davlatida ma'muriy boshqaruv, iqtisodiyotni mustahkamlashga, halq farovonligini oshirish, harbiy qudrat, jangchilarning shaxsiy salohiyati, ma'naviy va jismonan sog‘lom, kuchli askarlarni tayyorlash kabi sohalarga moliyaviy harajatlar ajratgan [1].

**Mavzuga oid mavjud muammolar:** Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar davomida, shu jumladan Amir Temur va temuriylar zamonida davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar [2] bilan tirikdir degan tafakkur humronlik qilgan. Shu bois feodal tarqoqlikni tugatish va markazlashgan davlatni vujudga keltirishda Temurning

iqtisodiy siyosat va mulk munosabatlari mohiyati va hajmi jihatidan hal etilishi lozim bo‘lgan keng va katta vazifalardan biri edi.

Ma'lumki o‘rta asrlar zamonida er va erga egalik qilish xo‘jalik munosabatlarining eng muhim bo‘g‘inini tashkil etgan. Er – mulkiy munosabatlarning asosini tashkil etgan holda, aholining erga eagaliq qilishi jamiyatda boy va kambag‘al, dehqon va mardikor kabi tabaqalanishni yuzaga keltirgan. Bir so‘z bilan aytganda, er-suvga egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etish o‘rta asrlarda hukmronlik qilgan jamiyatlar iqtisodiy munosabatlarining asosini tashkil etgan. Amir Temurning xizmati shundaki, u o‘z hukmronligi davrigacha shakllangan iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlaydi, barqarorlikni ta'minlaydi, ijtimoiy adolat va sahovatlik tamoyillarini joriy qiladi. Bu ishlarni amalga oshirishda er egalarining o‘z manfaatlari yo‘lida erdan foydalanishdagi suist'emolliklarni siyosiy va diniy tomondan tartibga solishga erishadi. Temur, davlat agar diniy tartiblar asosida qurilmasdan, to‘rachilikka asoslanar ekan, bunday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo‘qoladi, degan fikrga asoslanib, vaqflarni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavalliy – ya'ni vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy mansabdorlar tanlagan, shu bilan birga har bir shahar va viloyatda qozi, mufti, muhtasib – shariat qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi mansabdor tayinlangan.

**Muammoni hal qilish usullari:** Temur davrida er-suvga egalik qilishning ko‘rinishlaridan biri suyurg‘ol deb atalib, suyurg‘ol – davlat oldida ko‘rsatgan katta xizmatlari evaziga qilinadigan in'om shakli bo‘lib, o‘rta asr sharoitida keng rivojlandi. Sayyidlar, ulamolar, shayhlar, saroy xizmatchilari, yirik mansabdorlarga suyurg‘ol belgilangan. Manbalardagi ma'lumotlarga ko‘ra, suyurg‘ol tariqasida berilgan erlar va vaqflarning ahvolini va shu sohaga mutasaddi amaldorlarning ishini Temurning o‘zi nazorat qilgan. Temuriylar davrida Sayhun va Jayhun daryolaridan kanallar qazib chiqarilgan. Ko‘plab o‘zlashtirilmagan erlar o‘zlashtirilib bu joylarga suv olib kelindi, ziroat maydonlari kengaytiridi. Eng muhimi raiyatning er-suvi, mol-mulki, buyumlari himoya qilindi, ularning dahlsizligi ta'minlandi. Amir Temur har bir dehqon aholining holidan xabardor bo‘lib turdi. Shu tariqa zolimlardan mazlumlar haqini olib berar, ular etkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni undirish tadbirlari ishlab chiqilar, xokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm etkazgani eshitilsa, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko‘rilardi. Amir Temur insonning yashashi, hayoti uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarish qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi yaxshi tushunar, tabiiy resurslarni tayyor mahsulotlarga aylantirishda, umuman ishlab chiqarishda, boylik yaratishda mehnatning roliga katta baho berar edi. Temur tuzuklarida dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi etmasa kerakli asbob-uskunalar va mehnat

qurollarini etkazib yordam berish kabi iqtisodiy siyosat yuritilar edi. Shu bois dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi etmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug‘chilik ziroatlari va mehnat qurollari berilgan, toki o‘zlarini-o‘zlari boqish bilan o‘z erlarini ham obod qilish imkoniyatini yaratib bergan. Amir Temurning farmoniga binoan xarob bo‘lib yotgan erlarda korizlar qurilib, agar fuqarodan birining uy imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berilgan, ularga yordam berilgan. Hatto zioratini talon-taroj qiluvchilardan himoya qilish uchun qo‘riqchilar tayinlangan.

Xazina, ya'ni davlat pul resurslarining markazlashtirilgan jamg‘armalarini vujudga keltirish, taqsimlash va qayta taqsimlash jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Bu davrda pul munosabatlari etarli rivojlanmaganligi sababli natura holidagi davlat resurslarining harakati ham Amir Temurning diqqat markazida bo‘lgan. Sohibqiron, avvalo, davlatning moliyaviy jihatdan mo‘g‘ul bosqinchilariga qaramligiga uzil-kesil barham beradi, mamlakatning mustaqil xazinasini yaratadi va uni muttasil mustahkamlab boradi. Amir Temur saltanatni shariat doirasidagi iqtisodiy tamoyillar va tartiblar asosida shakllantiradi, har bir hudud va o‘lkaning o‘ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, qator imtièzlar va islohotlar joriy qildi. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan, chetga chiqqan notanish kishilar, har turli mamlakatlardan kelgan karvonlar, qo‘shni podshohlarga nisbatan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirdi. Jumladan, saltanat xazinasi va mahalliy ulus hamda tumanlar ixtièridagi mablag‘lar tarkibiga aniqlik kiritadi, ularning markaziy hokimiyat bilan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarini takomillashtiradi.

Amir Temur va temuriylar davlati iqtisodiètning ichki va tashqi savdosiga tayanar edi. Uning hukmronligi davrida savdo rastalari va bozorlarni, yo‘llarni yaxshilash va asosiy karvon yo‘llarida yangi karvonsaroylar barpo etish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Shaharlar ko‘chasidan o‘tgan keng ko‘chalarda savdo rastalari joylashdi, shaharlarning turli qismlarida savdo-hunardmandchilik inshootlari barpo etildi, bozorlar hududi kengaytirildi. Ixtisoslashgan bozor rastalarida muayyan mahsulot turi bilan savdo olib borilar edi. Sohibqiron narx-navo va, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari narxini tekshirib borar hamda hunarmandlar uyushmalarining unumli ishlashiga homiylik qilardi. Yo‘lovchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida butun Movarounnahrda yuk tashish va pochta xizmatini yaxshi yo‘lga qo‘ydi edi. Amir Temur savdo-sotiq, iqtisodiy aloqalar davlat moliya iqtisodiy siyosatini xalqlarning turmush darajasini ko‘tarishdagi muhim vosita deb bilganligi uchun ham ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga alohida e'tibor bergan.

Amir Temurning pul-moliya sièsatida qo‘llagan chora-tadbirlaridan eng muhimi hisoblanadi. Temur  tomonidan barcha hududlarda yagona pul muomalasi

yo‘lga qo‘yilgan edi. Bu butun saltanatning siёsiy, iqtisodiy jihatdan bir butun yaxlit davlat ekanligini ko‘rsatuvchi ramz, ya'ni belgi bo‘lgan.

**Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar:** Temurning iqtisodiy siyosatidagi mazkur islohotni tahlil qilish asnosida bilish mumkinki, bundan qariyib 600-700 yil ilgari O‘rta Osiyoda iqtisodiy masalalarga alohida e'tibor berilib, er egaligi hamda dehqonning mehnati davlat tomonidan himoya qilingan. Go‘yoki, Temur tomonidan qilingan bu ishlar hozirda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagandek.

Temurning Moliya sohasidagi, xususan soliq masalalari haqidagi qarashlarini tahlil qilar ekanmiz, ingliz iqtisodchisi Adam Smitning xalqlarning boyligi, tabiati va sabablari nomli kitobida[3] shuningdek, J.Bodenning davlat haqidagi nomli risolasi [4] hamda A. Rishele va M.Syulli asarlarida Temur tuzuklarida yozilgan davlatni boshqarish kabi ta'limotlar ayrim o‘zgarishlar bilan qaytadan qayd qilingan.

Bu dalillar Temurning iqtisodiy qarashlari o‘z zamonasiga nisbatan bir qancha keng bayon qilinganidan darak beradi. Moliya va davlat tuzilishi nazariyalari dastlab G‘arb emas, Sharqda shakllanganligini ko‘rsatadi. Amir Temur iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishi —mamlakatni obod, raiyatni rozi qilish edi. U bu ishlarga odamzod rizqining vositasi bo‘lmish dehqonchilikni rivojlantirish orqali erishish mumkin deb bildi. Raiyatning roziligi ham xazinaning boyligi ham, harbiy qudratning iqtisodiy negizi ham shundan deb qaradi.

Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur dehqonchilikni rivojlantirishga shunchalik katta e'tibor va qat'iyatlik ko‘rsatdiki, “Agar biron kishi garchi nomozini tark qilishga majbur bo‘lsa ham dexqonchilikni tark qilishdan hazarda bo‘lsin”, deb ko‘rsatma bergan. Amir Temur iqtisodiy siyosatining bugungi kun uchun ibrat bo‘ladigan tomoni shundaki, u o‘z mamlakatinggina emas, hattoki fath etilgan har bir mamlakatdagi dehqonlar va ekin maydonlari mulkdorlari ko‘ngilni hushnud etsinlar, o‘zlariga qaratsinlar, ko‘p va katta daromad olsinlar, deb ko‘rsatma beradi. Dehqonlarga yordam berish, qo‘llab-quvvatlash, ularning mulklarini daxlsizligi ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining asosi, deb biladi. Xarob bo‘lib yotgan erlar egasiz bo‘lsa, davlat mulki sifatida davlat tarafidan obod qilinishi shart deb hisoblagan va o‘z nazorati ostiga olgan. Xulosa o‘rnida ta'kidlash joizki, sohibqiron Amir Temur o‘z davrining etuk siyosatchisi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda keng islohotlarni amalga oshirdi. Buning natijasida barqaror iqtisodiyotga ega bo‘lgan buyuk davlatchilikka asos soldi. Ayniqsa, soliq qonunchiligida amalga oshirilgan islohotlar mazmuni hozirgacha olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Amir Temur va Temuriylar davri merosini barkamol avlod tarbiyasidagi orni. Andijon. 2017